

**O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini
himoya qilish qo‘mitasi tomonidan Rivojlanish dasturining 2024-yil uchun
tasdiqlangan maqsadli mo‘ljallarini 2024-timing 1-yarim
yilligidagi ijrosini baholash**

HISOBOTI

Ushbu hisobot Qo‘mita hamda uning hududiy organlari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylari davomida amalga oshirilgan ishlar va ulaming natijalari yuzasidan tayyorlangan ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-son qarorining 7-ilovasiga asosan, birinchi darajali budget mablag‘larini taqsimlovchilarning 2024-2026-yillar uchun budget mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlari tasdiqlangan.

Unga ko‘ra, Qo‘mitaga Tadbirkorlar va iste'molchilarga tovar va moliya bozorlariga kirish uchun teng sharoitlarni ta'minlash va raqobat cheklanishining oldini olishni nazarda tutuvchi 4 ta *{shundan, 2 ta yo‘nalishdan iborat yakuniy va 2 ta yo‘nalishdan iborat bevosita}* natija ko‘rsatkichlari tasdiqlangan va 11,6 mlrd. so‘m ajratilgan.

Natija ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1. Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy qilingan Davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar sonini **180** taga yetkazish;
2. Qo‘mita tomonidan **120** ta tovar, moliya va raqamli bozorlarda raqobat holatini tahlil qilish;
3. Reklama to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilishi darajasini *(o‘tkazilgan monitoringlarga nisbatan)* 23% ni tashkil etishi;
4. Tovarlamani ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha **265** ta nazorat xaridlarini amalga oshirish;

Qo‘mita tomonidan mazkur maqsadli mo‘ljallar 2024-yilning 1-iyul holatiga quyidagicha bajarilgan:

Ajratilgan 11,6 mlrd. so‘m mablag‘lardan Qo‘mita tomonidan 4,5 mlrd. so‘m qismi yoki 38,8 foizi o‘zlashtirilgan.

1. 2024-yil yakuniga qadar jami 180 ta Davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish belgilangan bo‘lib, 2024-yilning 1-iyul holatiga jami 216 ta Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimi to‘liq joriy etilganligi ma'lum bo‘ldi.

2. Qo‘mita tomonidan **120** ta tovar, moliya va raqamli bozorlarda raqobat holatini tahlil qilish belgilangan bo‘lib, 2024 yil 1-yarim yilligi davomida 80 ta tovar va xizmatlar bozorlarida tahlil ishlari olib borilgan, jumladan:

- 11 ta bozorlar *Şumladan havo transportida tashish xizmatlari, gazni yer ostida saqlash xizmatlari va don mahsulotlari, Mineral o'g'itlarni ulgurji bazalarga yetkazib berish va saqlash xizmati bozori, Gipsokarton ishlab chiqarish va sotish bozori, Listlangan oyna ishlab chiqarish va sotish bozori, Temir yo'llarda yo'lovchi tashish xizmati bozori, Superfosfat ishlab chiqarish va sotish bozori, Karbamld ishlab chiqarish va sotish bozori, Ammiakli selitra ishlab chiqarish va sotish bozori, Formalin ishlab chiqarish va sotish bozorlari*) tahlil qilingan. Tahlil natijalariga ko'ra, 6 ta korxonada 6 ta tovar va xizmatlar ustun mavqega ega deb e'tirof etildi hamda 7 ta korxonada 7 ta tovar va xizmatlar bo'yicha ustun mavqeini yo'qotganligi e'tirof etilgan;

20 ta tovar va ish xizmatlarning bozorlarda muqobillari mavjud yoki mavjud emasligi yuzasidan *Şumladan, temir yo'l infratuzulmalarida foydalaniladigan mahsulotlar, xar xil turdagi podshibniklar, avtomobil ehtiyot qisimlari va FIDIC sertifikatini berish xizmatlarini Yagona yetkazib beruvchilar reyestiriga kiritishni ko'rib chiqish yuzasidan*) tahlil o'tkazilgan hamda natijalari yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga xulosalar taqdim etilgan;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 20-dekabrda 303-sonli qaroriga bilan tasdiqlangan Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish dasturiga kiritish uchun loyihalarni ko'rib chiqishda Ichki bozorning mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan to'langanligini aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizomga asosan, ichki bozorning mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan to'yinganligini aniqlash maqsadida, 49 ta ekspress tahlillar o'tkazilgan bo'lib, tahlillar natijalariga ko'ra, 24 ta tovar bozorlari mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari bilan to'yinganligi Vft 25 ta tovar bozorining to'yinganlik darajasi pastligi *{to yinmagani}* aniqlangan.

3. Reklama to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishi darajasini *{o'tkazilgan monitoringlarga nisbatan}* 23% ni tashkil etishi belgilangan bo'lib, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda va telegram messenjerida tashkil qilingan guruh va kanallarda, tashqi reklama va axborot ob'ektlarida *{konstruksiyalarida}* reklamalarni joylashtirilishi va tarqatilishi bo'yicha Qo'mita tomonidan 2024 yil 1-yarim yilligi davomida jami 15 653 ta o'rganishlar o'tkazilgan.

O'rganish (moniforing)lar natijasida 5 215 ta *{33 foizi}* holatda turli kamchiliklar aniqlanib, ularni tezkor bartaraf etish choralari ko'rilgan.

Xususan, peshlavha, tashqi yozuvlar va boshqa e'lonlardagi hamda tashqi reklama vositasidagi reklamalar matni boshqa tillarda berilganligi, reklama va axborotlar matnida lug'aviy ma'nosi buzilganligi va imloviy xatolar mavjudligi aniqlangan bo'lib, kamchiliklarni tezkor bartaraf etish choralari ko'rilgan hamda ularni Davlat tili va Reklama to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiq lashtirilishi ta'minlanganligi ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-son qarorining 7-ilovasiga asosan Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan rivojlantirish dasturlari bo'yicha 2024-yil II chorakda erishilgan natija ko'rsatkichlari

№	Rivojlanish dasturi va maqsadli indikator nomi	O'lchov birligi	2024-yil uchun jami	2024-yil I-iyul holatiga			Izoh
				Ijro	Farqi	Foizda (%)	
	Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilarni huquqlarini himoya qilish qo'mitasi	mlrd.so'm	11,6	4,5	-7,1	38,8	
Strategik maqsad: Tadbirkorlar va iste'molchilarga tovar va moliya bozorlariga kirish uchun teng sharoitlarni ta'minlash va raqobat cheklanishining oldini olish							
Yakuniy natija ko'rsatkichi							
1.	Davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimi joriy qilinishi.	dona	180,0	216,0	36,0	120%	2024-yilda jami 180 ta (o'sib borish tartibida) korxonada faoliyatida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish belgilangan bo'lib, shundan 2024-yilning II-choragi yakunida jami 216 ta respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida monopoliyaga qarshi komplaens tizimi to'liq joriy etildi.
2.	Raqobat holati tahlil qilinadigan tovar, moliya va raqamli bozorlar soni.	dona	120,0	80	-40	66,7%	Qo'mita tomonidan 2024 yil II-choragi davomida 33 ta va yarim yillikda 80 ta tovar va xizmatlar bozorlari tahlil qilindi. Shundan, 11 ta bozorlar to'liq, 20 ta tovar va ish xizmatlarning bozorlarda muqobilari mavjud yoki mavjud emasligi yuzasidan va 49 ta mahsulot bilan to'yinganligi bo'yicha ekspress tahlillar o'tkazildi. To'liq tahlillar: 1. Gazni yer ostida saqlash xizmati bozori; 2. Don mahsulotlari yetishtirish va sotish bozori; 3. Havo transportida yo'lovchi, yuk va pochta tashish xizmatlari bozorlari; 4. Mineral o'g'itlarni ulgurji bazalarga yetkazib berish va saqlash xizmati bozori;
Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi							
5.	Reklama to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishi darajasi	foiz	23,0	33	10	143,5	Qo'mita tomonidan ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda va telegram messengerida tashkil
№	Rivojlanish dasturi va maqsadli indikator nomi	O'lchov birligi	2024-yil uchun jami	2024-yil I-iyul holatiga			Izoh
				Ijro	Farqi	Foizda (%)	
	(jami o'tkazilgan monitoringlarga nisbatan)						qilingan guruh va kanallarda, tashqi reklama va axborot ob'ektlarida (konstruksiyalarida) reklamalarni joylashtirilishi va tarqatilishi bo'yicha jami 15 653 ta o'rganishlar o'tkazilgan. O'rganish (monitoring)lar natijasida 5 215 ta (33%) holatda turli kamchiliklar aniqlanib, ularni tezkor bartaraf etish choralari ko'rilgan. Xususan, peshlavha, tashqi yozuvlar va boshqa e'lonlardagi hamda tashqi reklama vositasidagi reklamalar matni boshqa tillarda berilganligi, reklama va axborotlar matnida lug'aviy ma'nosi buzilganligi va imloviy xatolar mavjudligi aniqlangan bo'lib, kamchiliklarni tezkor bartaraf etish choralari ko'rilgan hamda ularni davlat tili va reklama to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqlashtirilishi ta'minlangan.
6.	Tovarlarni ekspertizadan o'tkazish bo'yicha nazorat xaridlari soni.	dona	265,0	329	64	124,2%	Qo'mita tomonidan 2024 yil II-choragi davomida jami 329 nomdagi mahsulotlar nazorat xarid qilinishi, akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalarda tekshirilganda, ularning 34 nomdagisi (10,3%) amaldagi texnik jihatdan tartibga solish hujjatlariga nomuvofiqligi aniqlangan. Nomuvofiqligi aniqlangan mahsulotlarni savdo rastalaridan qaytarib olish va belgilangan tartibda chora ko'rish uchun O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga yuborilgan.